



UDK 372.881.1

Klaraxon MAVLONOVA,
ToshDO'TAU professori
Dilnura AVEZOVA,
O'zMPU o'qituvchisi
E-mail: d.avezova@npuu.uz

Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, ped.f.d. (DSc) S.Tajbenova taqrizi asosida

ESSE YOZISH MALAKASINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUV

Annotsatsiya

Mazkur maqolada 10–11-sinf o'quvchilarining esse yozish malakasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda yozma nutqni shakllantirishning nazariy asoslari, esse yozishga oid malaka talablari hamda ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, kreativlik, tanqidiy va strategik fikrlash, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarning esse yozish jarayonidagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda yozma nutq savodxonligini oshirish va metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: esse, yozma nutq, kreativlik, tanqidiy fikrlash, strategik fikrlash, moslashuvchanlik, kompetensiya, metodika, topshiriqlar tizimi.

DEVELOPING ESSAY WRITING SKILLS: A THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACH

Annotation

This article examines the development of essay writing skills among 10th–11th grade students. It analyzes the theoretical foundations of written speech formation, the requirements for essay writing, and a system of tasks aimed at improving these skills. The study also highlights the role of competencies such as creativity, critical and strategic thinking, and adaptability in the essay writing process. The results contribute to enhancing students' writing literacy and improving methodological approaches in teaching.

Keywords: essay, written speech, creativity, critical thinking, strategic thinking, adaptability, competence, methodology, task system.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ НАПИСАНИЯ ЭССЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы развития навыков написания эссе у учащихся 10–11 классов. Анализируются теоретические основы формирования письменной речи, требования к написанию эссе, а также система заданий, направленных на развитие данных умений. Обосновывается роль таких компетенций, как креативность, критическое и стратегическое мышление, адаптивность в процессе написания эссе. Результаты исследования способствуют повышению уровня письменной грамотности учащихся и совершенствованию методических подходов.

Ключевые слова: эссе, письменная речь, креативность, критическое мышление, стратегическое мышление, адаптивность, компетенция, методика, система заданий.

Kirish. Yozma nutqqa oid malakalarni shakllantirish – ona tili ta'limining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri. Chunki yozma nutq fikrni aniq, izchil va mantiqiy tarzda ifodalashning asosiy vositasi bo'lib, muloqot hamda axborot almashinuvida muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda yozma nutq savodxonligiga qo'yilayotgan talablar yanada murakkablashib, u shaxsning zamonaviy jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlaydigan kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur jarayonda amalga oshirilishi zarur bo'lgan dastlabki vazifa – esse yozishga oid malaka talablarining aniq mazmunini belgilab olishdir. Chunki har qanday ta'limiy maqsad muayyan mazmunga tayanadi. Aynan shu mazmun ta'lim vositalarini tanlash va ularni samarali qo'llash uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Izlanishlar davomida esse yozishga oid malaka talablari atroflicha tahlil qilinib, ilmiy manbalarda quyidagi ko'nikmalar majmui shakllangani aniqlandi:

– publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyatlarini ajrata bilish va unga xos til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish;

– matnni mantiqiy qismlarga ajratish, xatboshilarni to'g'ri tashkil etish va ularning qo'llanish qoidalariga amal qilish;

– berilgan maqsad va mazmunga mos ravishda esse uchun sarlavha ishlab chiqish va uni ifodalay olish;

– tezis tuzish tamoyillariga rioya etish hamda fikrni qisqa va aniq bayon qila bilish;

– imlo va punktuatsiya me'yorlariga qat'iy amal qilish[1].

Milliy o'quv dasturi[2] da 9–11-sinflar uchun esse yozish bilan aynan bog'liq bo'lgan quyidagi malaka talablari belgilab olingan:

materialni tartiblash va umumlantirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse va insho yoza olish;

o'z yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy tasvir vositalarini qo'llay olish;

matnning izchilligini ta'minlash uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llay olish.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida esse yozishga o'rgatish jarayoni ko'p jihatdan o'quvchining yozma nutqiga qo'yiladigan umumiy talablar bilan chambarchas bog'liq

degan xulosaga kelish mumkin. Ammo ushbu janrning o'ziga xos shunday talablari borki, ularni shakllantirish alohida yondashuvni talab qiladi. Esse yozishga oid ta'lim mazmuni yoki malaka talablarda quyidagi ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Kreativlik – o'quvchilarda yangicha fikrlash, noodatiy yondashuvlarni qo'llash hamda innovatsion g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim kompetensiyalardan biridir. U faqatgina yangi fikrlar yaratish bilan cheklanmay, balki mavjud bilim va tajribalarni qayta talqin qilish, ularni turli kontekstlarda moslashtirib qo'llay olishni ham qamrab oladi.

Tanqidiy (kritik) fikrlash – o'quvchilarning axborotni chuqur tahlil qilish, uni har tomonlama baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim kognitiv jarayondir. Ushbu ko'nikma o'quvchiga turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ishonchlik darajasini aniqlash, dalillarni saralash va tizimlashtirish, shuningdek, o'z nuqtayi nazarini mantiqiy va dalillarga tayangan holda asoslash imkonini beradi.

Esse yozish jarayonida tanqidiy fikrlash o'quvchining mavzuni yuzaki emas, balki chuqur anglab, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilishiga xizmat qiladi. U qarama-qarshi fikrlarni solishtirib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, muammoga nisbatan asoslangan munosabat bildiradi hamda mustaqil, puxta xulosa chiqaradi.

Strategik fikrlash – esse yozish jarayonini ongli ravishda rejalashtirish, uni bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etishga xizmat qiladigan muhim ko'nikmadir. Mazkur kompetensiya o'quvchida matnni oldindan loyihalash, ya'ni kirish, asosiy qism va xulosa o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda joylashtirish hamda asosiy g'oyalarni ustuvorlik darajasiga ko'ra saralash qobiliyatini shakllantiradi.

Maktabni bitirgach, qay yo'ldan borgan ma'qul: oliy ta'limda o'qish yoki ishga kirish?	A	Yaxshi yashamoq uchun yaxshi ishlamoq zarur, shu zaminda dadil turmoq uchun ko'p bilmoqlik darkor. (M. Gorkiy)
	B	Bilim – davlatdan qimmat. (Maqol)
	D	Avval bil, keyin qil. (Maqol)
	E	Ilm o'qub qilmagan amal maqbul, Dona sochib ko'tarmadi mahsul. (Navoiy)
Ayrımlar laboratoriyalarda tadqiqot uchun hayvonlardan foydalanishga qarshi ekanini aytishadi. Siz qanday fikrdasiz?	A	Biror bir inson chumchuq yoki undan katta hayvonni, parrandani haqsiz, nohaq holatda o'ldiradigan bo'lsa, Alloh taolo qiyomatda uni so'rab oladi. (Hadis)
	B	Toyni toy deb xo'rлама, Erta-indin ot bo'lar. (Maqol)
	D	Yer yuzida o'rmaslab yuradigan har qanday hayvon, qanotlari bilan uchib yuradigan har qanday qush borki, ular ham sizga o'xshagan millatlardir, ummatlardir. ("Qur'oni Karim" oyatlaridan)
	E	Hayvonlarga nisbatan shahvatsiz munosabatda bo'lish, ularni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda qiynoqqa solish kabi harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik belgilanadi. ("Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi" kodeks, 111-modda)
Maktabda o'quvchilar uchun bir xil kiyim tanlanishiga qanday qaraysiz?	A	Ijtimoiy tenglik – har qanday jamiyatdagi adolatlilik boshqaruvning ifodasi. (Gazetadan)
	B	"Ijtimoiy rol" tushunchasiga ko'ra, shaxs o'zining jinsi va yoshiga mos ravishda turli ijtimoiy rollarni "o'ynaydi" va ularning o'zgarishiga moslashadi. (Gazetadan)
	D	Maktab formasini joriy etishning maqsadi o'quvchilarning bilimli, odob-axloqli, sog'lom fikrli, har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashishdan iborat. (Zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror)
	E	Birni ko'rib fikr qil, bini ko'rib shukur qil. (Maqol)

Jadvalda berilganlardan foydalangan holda ijodiy matn yaratish

Kirish	Asosiy qism	Xulosa
Men uchun ushbu masala ...	Birinchi, ... Ikkinchi, ... Uchinchi, ...	Shunday qilib, ...
Ushbu masalaga oid fikrlarni ifodalashning muhimligi ... ko'rinadi.	Masalaning har ikki tomonini ko'rib chiqamiz. Masalan, ...	Berilgan mulohazalar asosida aytish mumkinki, ...
Masalaning asosiy mohiyati shundaki, ...	Ushbu fikrni quyidagi ma'lumot bilan asoslash mumkin, ...	Demak, ...
Mazkur masala haqida fikrlar ekanimiz, ...	Aytish mumkinki, bir tomondan, Ikkinchi tomondan esa ...	Umuman olganda, ...

II. Matn tuzilishiga oid topshiriqlar

Moslashuvchanlik (adaptivlik) – o'quvchilarning turli sharoit va o'zgaruvchan vaziyatlarga tez, samarali hamda maqsadga muvofiq tarzda moslasha olish qobiliyatini ifodalovchi muhim kompetensiyadir. Zamonaviy ta'lim muhitida ushbu ko'nikma alohida ahamiyat kasb etib, o'quvchilarni noan'anaviy vaziyatlarda to'g'ri yo'l topishga, murakkab muammolarga turli yondashuvlar asosida yechim izlashga undaydi.

Esse yozish jarayonida moslashuvchanlik o'quvchining berilgan mavzu, vazifa yoki kommunikativ vaziyatdan kelib chiqib, o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqishi, zarur hollarda ularni yangicha talqin qilishi va turli nuqtayi nazarlarni uyg'unlashtira olishini ta'minlaydi.

Esse yozish malakasini rivojlantirishning har bir komponenti muayyan topshiriqlar tizimi yordamida mustahkamlanib borilsagina kutilgan maqsadga erishish mumkin. Ishlab chiqilgan va tavsiya etilayotgan usul va vositalar ko'zlangan maqsadga oid bilimlarni o'rganishga qaratilishi hamda muayyan tizimga ega bo'lishi zarur.

Tahlil va natijalar. Esse yozish malakasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda jarayonda qo'llanishi mumkin bo'lgan topshiriqlar tizimi quyidagicha tasniflandi:

I. Matn mazmuniga oid topshiriqlar. Bunday topshiriqlar bevosita o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, unda belgilangan maqsad asosida matn mazmunini yoritib berishning usullari haqida ma'lumot berish ko'zda tutilgan.

Mantiqiy-mazmuniy izchillikni to'g'ri tushunish, sarlavhada berilgan mazmunni to'g'ri anglash, uning maqsadi asosida fikr ifodalash malakasini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar:

Mavzuga mos kelmaydigan bandni aniqlash va javobni izohlash

Matnni xatboshilarga ajratish. Matnni nechta xatboshiga ajratish mumkinligi haqida o'ylab ko'ring. Fikringizni izohlang.

Insoniyat ming yillar davomida ona tabiatning bag'rida voyaga yetdi. Tuproq isi, barglarning shitirlashi va qushlarning navosi biz uchun begona emas. Ammo bugun ulkan megapolislarning baland devorlari va "steril" xonadonlarimiz bizni tabiatdan shu qadar uzib qo'yimoqdaki, endilikda yangi avlod orasida "biofobiya" – tiriklik olamidan qo'rqish avj olmoqda. Xo'sh, bu shunchaki o'tkinchi holatmi yoki kelajak ekotizimi uchun "SOS" signal? Shvetsiyadagi nufuzli Lund universiteti tadqiqotchilari o'tkazgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, biofobiya tushunchasi faqatgina ilon yoki o'rgimchaklardan qo'rqish bilan cheklanmaydi. Bu – tabiatning har qanday ko'rinishiga nisbatan tug'ilgan umumiy xavfsirash hissi. Universitet tadqiqotchisi Yoxan Yensen ta'kidlaganidek, zamonaviy urbanizatsiya inson ongini "tosh qafas"ga qamab qo'ydi. Shahar markazidagi ko'p qavatli uyda yashaydigan bola uchun yerdagi oddiy chumoli ham xavfli mahluq, daraxt soyasi esa qo'rqinchli sharpa bo'lib tuyulmoqda. Ular uchun tabiat – ekrandagi yorqin tasvir yoki kitobdagi surat xolos. Biz "bolam toza yursin" deb, uni tuproqdan, giyohdan, tabiiy muhitdan butunlay ihtotaladik. Natijada, bolalarning tabiat bilan "birinchi uchrashuvi" vahima va o'ta begonasirash bilan yakunlan-moqda. Psixolog Dirk Shtempning tahlillariga ko'ra, insoniyatning tabiatdan begonalashuvi o'tgan asrning 70-yillaridan boshlangan. Bugungi kunda bolalar o'z vaqtining asosiy qismini yopiq binolarda va ekran qarshisida o'tkazmoqda. Eng achinarlisi, bu qo'rquvning shakllanishida kattalarning "hissa"si katta. Ota-onalarning "Suvga yaqinlashma!", "Loyga tegma!" yoki "Daraxtga chiqma, yiqilib tushasan!" kabi doimiy ogohlantirishlari bolaning ongostiga tabiatni dushman va xavf manbai sifatida muhrlab qo'yadi. Pedagog Syuzanna Zigl ham o'z amaliyotida bolalarning oddiy o't-o'lan yoki hasharotlardan haddan tashqari vahimaga tushish holatlari ko'payganini tasdiqlaydi. ("Oila va tabiat" gazetasidan)

III. Imloviy, ishoraviy va uslubiy qoidalar bilan bog'liq topshiriqlar

Esse yozishga oid ta'lim mazmunining mazkur qismida so'z va qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslub qoidalarga hamda imlo va punktuatsiyaga oid qoidalarga rioya qilish malakasini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Jumlalardagi uslubiy xatolarni aniqlab, uni qayta yozing.

a) O'zbekistonning tarixiy obidalarini dunyoga tanitish uchun barcha qulayliklarni yaratib berildi.

b) Uyning tomini tuzatish uchun yuqoriga chiqqach atrofini kuzatish uchun bir dam to'xtatiradi va tabiatni tomosha qildi.

d) Kutubxonamizda zo'r xizmat yo'lga qo'yildi, ya'ni asarlarni kitobxonga yetkazishni yangi formati joriy etilmoqda.

e) Men qo'shiq kuylashdan guruhdagilardan eng iste'dodlisi ekanman, ustozimlar shunday degan.

f) O'zlari haqidagi maqto'vni eshitgan odamlar o'zlaridan xursand bo'ladilar, lekin aytilgan maqto'vlar har doim ham haqiqat bo'lib chiqmasligi mumkin.

Besh o'rinda tinish belgisi tushirib qoldirilgan. Ularni o'z o'rniga qo'yib, matnni qayta yozing.

Yulduz bilan bog'liq "istarasi issiq" degan ibora bor bo'lib u yuzida yaxshilik alomati sezilib turgan, iliq muomalalik kishiga nisbatan ishlatiladi va bundagi "istara" yulduz ma'nosidagi "istora" yoki "sitora" so'zidir. "Astronomiya" "astro-fizika" degan so'zlarning "astro" qismi ham ana shu "istora"ga tarixan aloqadordir.

Demak "istarasi issiq" lug'aviy jihatdan yulduzi issiq degani ekan. Yulduzning munajjimlar e'tiqodiga ko'ra, kishining tabiatiga ta'siri bor. Shunga binoan "yulduzi issiq" tabiatan iliq degan ma'noni beradi. (A. Rustamiy)

IV. Tahrir bilan bog'liq topshiriqlar

Tahrir – yozma nutqni shakllantirish bilan bog'liq muhim jarayon. Fikrimizni E.Asanovning quyidagi jumlalari orqali dalillashimiz mumkin: "Har qanday matn tahrirdan so'ng shakl oladi, shuning uchun matn muallifi o'z mahoratiga ortiqcha baho berib yubormasligi, har qanday matnni tahrirdan o'tkazishi shart. Albatta, tahrir jarayoni, eng avvalo, har bir muallifning o'ziga o'zi muharrirlik qilishi bilan boshlanadi. Lekin u yozgan matnni yana kamida bitta odam ko'rib berishi kerak"[3].

Quyidagi topshiriqlar o'quvchilarning matn tahririga oid ko'nikmalarini shakllantirishi bilan birga matn tuzishda yo'l qo'yiladigan xatolarga e'tibor qaratish va ular ustida ishlash bilan bog'liq malakalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

1. Jumlalardagi xatoni aniqlang. Ularni tuzatib, qayta yozing. Chiqarilgan xulosalar asosida tahrir bilan bog'liq qoidalar tuzing.

a) Marhamat tumanidagi maishiy xizmat uyida ishlardim. O'sha kuni ishxonamiz yaqinida joylashgan savdo rastalaridan bir-ikkita kerakli buyumlarni xarid qilyapman. Har kuni yonlaridan o'tganim uchun ko'z tanish bo'lib qolgan savdogar ayol menga kiyimni arzon narxda berganidan xursand edim.

(Qoida: matndagi bitta voqea bayoni uchun faqat bir zamondagi fe'llarni ishlatish lozim.)

b) Bozorga kirishingiz bilan savdo rastalari, do'konlarni, peshtaxtani to'ldirib turgan sara mahsulotlarni ko'rib dilingiz quvnaidi, to'kin-sochinlik zamonida yashayotganingizdan mamnunlik his qiliasiz.

(Qoida: uyushiq bo'laklarning grammatik ko'rsatkichlari (kelishik, ko'plik, egalik va boshqa shakllar)ni turli shaklda qo'llash mumkin emas, ularni birlashtirib ifodalash kerak.)

d) o'nta mashinalar, ko'p odamlar, olimlar aytdilar, odamlar bayramni tomosha qilishga kelishmoqdalar, o'n ikki nafar pahlavonlar o'z kuchlarini namoyish qilishga tayyorlanmoqdalar.

(Qoida: -lar qo'shimchasi ko'plik ma'nosini ifodalovchi yagona vosita bo'lib, gapda ko'plik ma'nosi boshqa vositalar (son, miqdor bildiruvchi so'zlar) orqali ifodalangan bo'lsa yoki ega orqali allaqachon anglashilb turgan bo'lsa, uni takror qo'llashga hojat yo'q.)

Tahrir jarayoniga oid metodik tavsiyalarning eng samaralisi bu – esselar tahlilini olib borish. Ya'ni o'quvchilarga bir nechta boshqalar tomonidan yozilgan esse namunalarini taklif qilish hamda ularda yo'l qo'yilgan xatolarga o'quvchilar e'tiborini qaratish maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchining rejasida tahlil soatlari mavjud bo'lib, o'qituvchi bir necha nafar o'quvchining yozgan esselerini elektron doska orqali namoyish etishi, undagi uslubiy, imloviy va ishoraviy xatolar ustida munozara o'tkazishi samarali usullardan biridir.

Xulosa va takliflar. Esse yozishga oid malaka talablari va ularni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi o'quvchilarning fikrni izchil, mantiqiy va dalillangan holda ifodalash ko'nikmalarini takomillashtiradi. Shuningdek, matn tuzilishi, uslubiy me'yorlar, imlo va tahrir bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Esse yozishga o'rgatish jarayonini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning nafaqat yozma nutq madaniyatini, balki ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi.

1. Alabama course of study english language arts. Alabama Course of Study: English Language Arts – 2021.
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. 2022–2023- o'quv yili uchun. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Asanov E. Jurnalistik til sirlari. Yozish va tahrir. Seminar materiallari. 2021.
4. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Anorbooks, 2023.